



**COMPARATIVE ANALYSIS OF THE MODERNIZATION OF
PUBLIC POLICY AND MANAGEMENT TECHNOLOGIES IN
THE PROGRESSIVE DYNAMICS OF PUBLIC
ADMINISTRATION**

Mardanov Sardorbek Zafar o'glu

4th year student, Political Science major, Political Science-22/A1
group, Faculty of Social Sciences, National University of
Uzbekistan named after Mirza Ulugbek, Tashkent, Republic of
Uzbekistan. Email: davronovz73@gmail.com

Orcid ID: 0009-001-5305-5860

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17813498>

ARTICLE INFO

Received: 25th November 2025

Accepted: 29th November 2025

Online: 30th November 2025

KEYWORDS

*Public administration, public
policy, public administration
technologies, public
administration modernization,
comparative analysis, political
process.*

ABSTRACT

This article presents a comparative analysis of the modernization of public policy and public administration technologies, two important components of public administration. In the context of this article, the author cites the processes of modernization of modern public policy and management technologies, using contextual, historical, institutional, and systemic methods of comparative analysis of the complex progressive dynamics of public administration. The article highlights the main signs of modernization in the public policy and governance of Singapore, Russia, China, and Germany. The article presents the scientific work of international research centers, representatives of the field, and scientists, specialists, and researchers who have made an invaluable contribution to the development of this process.

**DAVLAT BOSHQARUVINING PROGRESSIV DINAMIKASIDA DAVLAT
SIYOSATI VA BOSHQARUV TEXNOLOGIYALARI MODERNIZATSIYASI
QIYOSIY TAHLILI**

Mardanov Sardorbek Zafar o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy Fanlar fakulteti
Siyosatshunoslik yo'nalishi Siyosat – 22/A1 guruhi 4-kurs talabasi

Email: davronovz73@gmail.com

Orcid ID:0009-0001-5305-5860

O'zbekiston Respublikasi. Toshkent shahri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17813498>

ARTICLE INFO

Received: 25th November 2025

Accepted: 29th November 2025

Online: 30th November 2025

KEYWORDS

ABSTRACT

Mazkur maqolada davlat boshqaruvining ikki muhim komponenti bo'lgan davlat siyosati va davlat boshqaruvi texnologiyalarining modernizatsiyasi qiyosiy tahlili bayon etiladi. Muallif ushbu maqola



Davlat boshqaruvi, davlat siyosati, davlat boshqaruvi texnologiyalari, davlat boshqaruvi modernizatsiyasi, qiyosiy tahlil, siyosiy jarayon.

konteksida davlat boshqaruvining murakkab progressiv dinamikasini qiyosiy tahlilning kontekstli, tarixiy, institutsional va tizimli metodlaridan foydalangan holda zamonaviy davlat siyosati va boshqaruv texnologiyalari modernizatsiyasi jarayonlarini keltirib o'tadi. Maqolada Singapur, Rossiya, Xitoy va Germaniyaning davlat siyosatida va boshqaruvida asosiy modernizatsiya belgilari ko'rsatib o'tiladi. Ushbu maqolada xalqaro tatqiqot markazlari, mazkur soha vakillari va bu jarayon ilmiy taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shgan olimlar, mutaxassislar va tatqiqotchilarning ilmiy ishlari taqdim etiladi.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ МОДЕРНИЗАЦИИ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОЛИТИКИ И УПРАВЛЕНЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОГРЕССИВНОЙ ДИНАМИКЕ ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ

Марданов Сардорбек Зафар угли

Студент 4 курса факультета социальных наук, политологии, группа 22/A1 политологии Национального Университета Узбекистана имени Мирза Улугбека, г. Ташкент, Республика Узбекистан.

Email: davronovz73@gmail.com

Orcid ID: 0009-001-5305-5860

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17813498>

ARTICLE INFO

Received: 25th November 2025
Accepted: 29th November 2025
Online: 30th November 2025

KEYWORDS

Государственное управление, государственная политика, технологии государственного управления, модернизация государственного управления, сравнительный анализ, политический процесс.

ABSTRACT

В статье представлен сравнительный анализ модернизации государственной политики и технологий государственного управления, двух важных компонентов государственного управления. В контексте данной статьи автор рассматривает процессы модернизации современной государственной политики и управленческих технологий, используя контекстуальные, исторические, институциональные и системные методы сравнительного анализа сложной прогрессивной динамики государственного управления. В статье рассматриваются основные признаки модернизации в государственной политике и управлении Сингапура, России, Китая и Германии. В статье представлены научные работы международных исследовательских центров, представителей данного направления, а также ученых,



*специалистов и исследователей, внесших
неоценимый вклад в развитие этого процесса.*

KIRISH.

Davlat boshqaruvining progressiv dinamikasida davlat siyosati va davlat boshqaruvi texnologiyalarining modernizatsion ko'lamini va zamonaviy trendlarini aniqlash, ularni tahlil qilish zamonaviy davlat boshqaruvi tatqiqotining dolzarb muammosi hisoblanadi. Globalizatsiya va modernizatsiya jarayonlarining rivojlanishi hamda bu jarayonlarda siyosiy rejimlar to'qnashuvi va istiqbollari, mazkur soha dinamikasini isloh qilishni taqazo etadi. Ko'pgina rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar o'zlarining davlat boshqaruvi tizimini istiqbolini belgilash va strategiyasini tuzishni nazariy, amaliy, empirik va tashkiliy masala sifatida belgilaydilar. AQSH, Kanada, Argentina, Braziliya, Buyuk Britaniya, Daniya, Norvegiya, Niderlandiya, Finlandiya, Shvetsariya, Belgiya, Fransiya, Shvetsiya, Germaniya, Italiya, Ispaniya, Rossiya, Xitoy, Hindiston, Indoneziya, Malayziya, Tailand, Singapur, Janubiy Afrika respublikasi, Avstraliya, Turkiya kabi bir qator davlatlarning davlat boshqaruvi modernizatsiyasi hamda strategik taraqqiyoti o'z oldiga davlat siyosati va boshqaruv texnologiyalarining sivilizatsiyaviy hamda an'anaviy yondashuvi orqali rivojlantirib bormoqda. Bu o'z navbatida, o'rta quvvatli rivojlanayotgan davlatlarga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Bu jarayon rivojlanuvchan tabiatga ega bo'lganligi bois, o'z shaklini raqamli va axborot ko'rinishiga o'tkazmoqda.

Mazkur maqola ilmiy kontekstida muhim bo'lgan asosiy tushunchalar mohiyati quyidagicha ifodalanadi:

Davlat siyosati – bu barcha hukumat qarorlarining yig'indisi, siyosiy tizim faoliyatining natijasi va siyosiy xaritaning (yo'lni) belgilash jarayoni. Davlat siyosatining barqarorligi davlatning jamiyatdagi roli va muammolarni hal etish uchun davlat hokimiyati organlariga yuklangan masalalar doirasi bilan belgilanadi. Biroq mazkur jarayon davlat siyosatida davlatlarning boshqaruv yo'nalishlariga ko'ra, "Tungi qorovul", "Politsiya", "Farovonlik" davlatlariga bog'liq hisoblanadi¹.

Davlat boshqaruvi texnologiyasi – davlat boshqaruvi tizimidagi zamonaviy texnologiyalar boshqaruv qarorlarini amalga oshirishning yangi tashkiliy shakllari, usullari, texnologiyalarini ishlab chiqish va jamiyatga hamda boshqa subyektlarga boshqaruv ta'siriga, shuningdek, davlat xizmatchilarining o'z faoliyatini qayta tashkil etishning yangi usullarini joriy etishga qaratilgan jarayondir².

¹ Алмонд Г., Пауелл Дж., Стром К., Далтон Р. Государственная политика // Алмонд Г., Пауелл Дж., Стром К., Далтон Р. Сравнительная политология сегодня. М., 2002. С. 187-238. <https://pavroz.ru/almond-public-policy>

² Амелина Т. С. СОВРЕМЕННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В СИСТЕМЕ ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ // Экономика и социум. 2023. №7 (110). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sovremennye-tehnologii-v-sisteme-gosudarstvennogo-upravleniya> (дата обращения: 16.11.2025).



Siyosiy modernizatsiya – bu hokimiyatlar bo‘linishining oqilona prinsipi asosida boshqariladigan markazlashgan davlatlarning shakllanishida namoyon bo‘ladi. U siyosiy ishtirokning vakillik shakli bilan kengayishni boshlab, uning tegishli institutlar orqali demokratiyaning o‘rnatilishi bilan yakunlangan keng ommaning siyosiy jarayonga qo‘shilishidir³.

Davlat boshqaruvida davlat siyosati va boshqaruv texnologiyalarining zamonaviy tendensiyalari rivojlanib borishiga qaramay, har bir davlat o‘zining boshqaruv resursidan kelib chiqib bu jarayonga moslashadi yoki inkor etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Davlat boshqaruvida davlat siyosati va boshqaruv usullari hamda texnologiyalarining rivojlanish evolyutsiyasi va davriy dinamikasida Platon, Aristotel, Nikolo Makiavelli, Tomas Gobbs, Jon Lokk, Georg Gegel, Jeremi Bentami, Aleksis de Tokvill, Jon Styuart Mill, Gerbert Spenser, Emil Dyurkgeym, Maks Veber, Zigmund Freyd, Xose Ortega I Gasset, Karl Polanyi, Lyudvig fon Mizes, Tolkatt Parsons, Gerbert Markuz, Karl Shmitt, Mishel Fuko, Karl Popper, Fridrix fon Hayek, Mansur Olson, Robert Nozik, Jon Rouls, Milton Fridman, Samuel Xantington, Uilyam Niskanen, Jeyms Buchanan, Ronald Kouz, Gordon Tulloch, Immanuel Valerstayn, Garri Bekker, Ernando de Soto, Denis Myuller, Frensis Fukuyamalar⁴ning olib kirgan nazariyalari va konsepsiyalari muhim ahamiyatga ega.

Mazkur “Davlat siyosati” sohasida rus olimi Rodachin Vladimir Mixaylovichning “Davlat siyosati fenomeni: mohiyati va turlari” nomli maqolasida Rossiya Federatsiyasidagi davlat siyosati haqida hamda g‘arb siyosatshunosligida davlat siyosatining konseptual asoslari haqida bayon qiladi. Bunda muallif davlat siyosatidagi madaniy va sivilizatsiyaviy farqlarni keltirib o‘tadi⁵. Yana bir rus olimlari V.I.Yakunin, S.V.Volodenkov, V.E.Bagdasaryan, M.V.Vilisovlar o‘zlarining “Davlat siyosati zamonaviy ilmiy tatqiqotlarning obyekti” nomli maqolasida “Davlat siyosati – davlat institutlari tomonidan legal va huquqiy ravishda amalga oshiriladigan, muayyan faoliyat sohasida davlat boshqaruvining maqsadlarini va qiymat asoslarini belgilab beruvchi siyosiy yo‘nalishdir.” jumlasini mavjud. Bu maqolada siyosiy elitaning davlat hokimiyatini qo‘lga kiritishi, faoliyat yuritishi hamda jamiyat tomonidan e‘tirof etilishi va siyosiy institutlarning mazkur jarayondagi pozitsiyasi ifodalanadi⁶. Rus olimasi E.V.Mandrikaning “Rossiyaning davlat boshqaruvi texnologiyalari” nomli maqolasida Rossiya Federatsiyasi davlatining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy sohalardagi so‘nggi yillarda

³ Атабиева З. А. Понятие и содержание политической модернизации // Дискуссия. 2010. №7. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ponyatie-i-soderzhanie-politicheskoy-modernizatsii> (дата обращения: 10.11.2025).

⁴ Государственная политика. <https://pavroz.ru/policy>

⁵ Родачин Владимир Михайлович ФЕНОМЕН ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОЛИТИКИ: СУЩНОСТЬ И ВИДЫ // Гуманитарные науки. Вестник Финансового университета. 2021. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/fenomen-gosudarstvennoy-politiki-suschnost-i-vidy> (дата обращения: 07.11.2025).

⁶ Владимир Иванович Якунин, Сергей Владимирович Володенков, Вардан Эрнестович Багдасарян, Максим Владимирович Вилисов ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА КАК ОБЪЕКТ СОВРЕМЕННЫХ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ // Вестник Московского университета. Серия 12. Политические науки. 2024. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/gosudarstvennaya-politika-kak-obekt-sovremennyh-nauchnyh-issledovaniy> (дата обращения: 07.11.2025).



amalgama oshirgan davlat boshqaruvidagi natijalari ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilingan. Bu orqali davlat boshqaruvidagi texnologiyalarni ko'rsatib o'tgan⁷. Rossiya davlatining Tomsk davlat universiteti tadqiqotchisi Borisova E.K. ning "Davlat boshqaruvi tushunchasi" nomli maqolasida davlat boshqaruvining kamida uch muhim xususiyatini tahlil qiladi. Bular: birinchidan, davlat boshqaruvi tizimli tashkil etilgan subyekt, ikkinchidan, insonlarning ijtimoiy hayoti boshqaruvni idrok etadi va reaksiyaga kirishadi, uchinchidan, boshqaruv davlat va jamiyat o'rtasida mustahkam aloqalarni shakllantiradi. Ushbu tadqiqotchi davlat boshqaruvining ijtimoiy hodisa sifatida tahlil qilgan va yondashgan hisoblanadi⁸. Yana bir rus tadqiqotchisi Baynova M.S. o'zining "Davlat tushunchasi va davlat boshqaruvi tizimi" nomli maqolasida mazkur fenomen va jarayonga nisbatan tizimli yondashadi va u o'z ilmiy ishida bu yaxlit mavzu doirasini ochib berishda bir qator rus olimlari va siyosiy jarayonlarga to'xtalib o'tadi⁹. Rossiyalik huquqshunos Mironov A.L. "Davlat boshqaruvi: asosiy maqsad va funksiyalari" nomli maqolasida 5 ta funksiyani kiritib o'tadi. Iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, mafkuraviy va ekologik hamda boshqaruvning o'zi uchun umumiy 7 ta funksiyani kiritish orqali davlat boshqaruvining dinamik harakat nuqtalaridagi rivojlanuvchan holatlarini ifodalaydi¹⁰. Biroq uning tadqiqotlarida konstitutsiyaviy huquqni qo'llash izchilligi ham bayon etiladi.

Davlat siyosati va davlat boshqaruvi texnologiyalari borasida ko'pgina xalqaro ilmiy tadqiqot markazlarining ilmiy ishlari, olimlar, tadqiqotchilar va mazkur soha mutaxassislarining amaliy va nazariy ishlanmalari diektik ravishda rivojlanib bormoqda. Bu jarayonda tanqidiy fikrlar, g'oyalar va qarama-qarshi ilmiy munozaralar ham mavjuddir.

TADQIQOT USULI VA METODOLOGIYA.

Davlat boshqaruvida davlat siyosati modernizatsiyasi davlat boshqaruvi nazariyasidagi quyidagi an'anaviy modellarning "Postmodernlashuv" holatiga o'tishida bir qator an'anaviy-tuzilmaviy qadriyatlarining o'zgarishi kuzatildi:

1) Anglo-sakson modelida davlatning yuridik shaxs yoki rasmiy-huquqiy subyekt sifatidagi tushunchasi mavjud emas. Yuridik ahamiyatga ega bo'lish davlat yoki davlat organlariga tegishli. Davlat jamiyat a'zolari o'rtasidagi kelishuv sifatida qaraladi. Davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar muzokaralar va bitimlar tizimi, katta moslashuvchanlik hamda erkinlik bilan tavsiflanadi.

2) Kontinental Yevropa modeli: nemis (organizm) va fransuz (bonapartizm yoki napoleonizm). Fransuz an'alarida davlat jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab

⁷ Мандрыка Е. В. Технологии государственного управления в России // Вестник института экономических исследований. – 2017. – № 1 (5). – С. 138-145.

⁸ Борисова Екатерина Константиновна Понятие государственного управления // International scientific review. 2020. №LXVI. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ponyatie-gosudarstvennogo-upravleniya> (дата обращения: 16.11.2025).

⁹ Байнова М. С. Понятие государства и системы государственного управления // Материалы Афанасьевских чтений. 2016. №1 (14). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ponyatie-gosudarstva-i-sistemy-gosudarstvennogo-upravleniya> (дата обращения: 16.11.2025).

¹⁰ Миронов А. Л. Государственное управление: основные цели и функции // Вестник Московского университета МВД России. 2012. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/gosudarstvennoe-upravlenie-osnovnyye-tseli-i-funktsii> (дата обращения: 16.11.2025).



olgan yagona, bo'linmas birlik sifatida qaraladi. Vakolatlar sektorlar va boshqaruv darajalari o'rtasida aniq bo'lingan.

3) Skandinaviya (anglo-sakson va german an'analari aralashmasi) modelida boshqaruv usullarini nomarkazlashtirish va mas'uliyatni mustaqil agentliklarga topshirishga asoslangan. Menejerizm tushunchasi byurokratiyaning yangi talqinini nazarda tutadi, uning asosiy belgilari:

a) Byurokratiya siyosiy rolining muqarrarligini e'tirof etish va buning natijasida uni nazorat qilishning yangi shakllarini izlash, boshqaruvning siyosiy va kasbiy vazifalarini optimal muvozanatlash;

b) Vertikal iyerarxiya rolini kamaytirish, funksional organlarni hamda gorizantal "tarmoq" tuzilmalarini rivojlantirish;

c) An'anaviy ma'muriy iyerarxiyaning ahamiyatini cheklash;

d) Davlat boshqaruvi faoliyatiga yangi boshqaruv tamoyillarini joriy etish, uning bir qismini davlat xizmatidan tashqariga chiqarish;

e) Davlat appartida institutsionalizmni qisqartirish va byurokratiyani "shaffof" va jamoatchilik talablariga muvofiq qilishga intilish¹¹.

Davlat siyosatida ijtimoiy soha modernizatsiyasida "davlat xizmatlari" ni yagona platforma orqali amalga oshirish, "Elektron hukumat" tamoyilini ilgari surish, "Postmodern" jamiyat shakllarini yaratish, iqtisodiy sohada davlat rolini kamaytirish va boshqaruv madaniyatida nomarkazlashtirish usullarini qo'llash hamda davlat boshqaruviga zamonaviy boshqaruv usullarini olib kirish¹² bugungi kunda o'zining progressiv xarakterini ko'rsatmoqda.

Davlat boshqaruvining progressiv dinasmikasida davlat siyosati va boshqaruv texnologiyalari modernizatsiyasi qiyosiy tahlili:

Qiyosiy tahlil obyekti	Soha	1950	1990	2010
Davlat siyosati	Ijtimoiy	Inson huquqlari va fuqarolik harakatlari ¹³ .	Ijtimoiy resurs ta'minoti ¹⁴ , Ijtimoiy himoya va neoliberalizm ¹⁵ .	Davlat xizmatlarida ijtimoiy siyosat ¹⁶ .

¹¹ Логунов А. Б. Административная реформа в Российской Федерации: основные этапы реализации // Аналитический вестник. Серия: Проблемы государственного строительства. 2006. № 22.

¹² Дорошенко Надежда Николаевна, Капица Сергей Иванович, Покровская Надежда Николаевна Модернизация социальной политики государства и реформирование социально-управленческих технологий // Социология и право. 2013. №4 (21). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/modernizatsiya-sotsialnoy-politiki-gosudarstva-i-reformirovanie-sotsialno-upravlencheskih-tehnologiy> (дата обращения: 09.11.2025).

¹³ Civil Rights movement in the 1950s. <https://www.ebsco.com/research-starters/history/civil-rights-movement-1950s>

¹⁴ The 1970's as Policy Watershed. <https://socialwelfare.library.vcu.edu/programs/health-nutrition/the-1970s-as-policy-watershed/>

¹⁵ The social policies of the 1990s and 2000s. <https://www.cambridge.org/core/books/abs/chile-and-the-neoliberal-trap/social-policies-of-the-1990s-and-2000s/>

¹⁶ World social report 2020. <https://www.un.org/en/desa/world-social-report-2020>



	Siyosiy	Xalqaro tashkilotlar, demokratiya va avtokratiya to'qnashuvi ¹⁷ .	Institutsionalizm, demokratizatsiya nomarkazlashtirish ¹⁸ .	Raqamli hukumat ¹⁹ .
	Iqtisodiy	"Inqiroz va qayta qurish" dilemasi ²⁰ .	Bozor iqtisodiyoti va mehnat infratuzilmasi ²¹ .	Kuchli iqtisodiy siyosat ²² .
	Madaniy	Regionalizm ²³ .	Globalizm ²⁴ .	Submadaniyat progressiyasi ²⁵ .

1-jadval. Davlat boshqaruvining progressiv dinamikasida davlat siyosati modernizatsiyasining sohalararo ko'rinishi.

Zamonaviy davlat boshqaruvining progressiv dinamikasida davlat siyosatining modernizatsiyasi 1950, 1990 va 2010-yillardagi sohalararo transformatsiyasi va o'zgarishi ko'rsatib o'tilgan. Yuqoridagi jadvalda qiyosiy tahlilning tarixiy metodidan foydalanilib, davriylik asosida davlat siyosati u yoki bu sohada qanday modernizatsion o'zgarishni amalga oshirgan va bu modernizatsion harakatlar aynan qaysi sohaning tarmoqlarida kuzatilganligi haqida maxsus mezonlar asosida ma'lumotlar keltirib o'tiladi. Davlat siyosatining ijtimoiy sohasida 1950-2010-yillar o'rtasidagi modernizatsion o'zgarishlar inson omili va uning institutsional tuzilmaning markazida turishi bilan o'zgarimoqda. Siyosiy sohada esa, "Tashkilot nazariyasi" va siyosiy tizim elementlarining ushbu vaqtlar davomidagi rivojlanishi kuzatiladi. Iqtisodiy sohada, iqtisodiy faoliyatning inqirozdan moslashuvchanlik va o'sish holatiga o'tishi aks etadi. Madaniy sohada esa, ushbu davriylikning hududiy, mintaqaviy hamda global darajaga chiqishi va uning hududlar ichidagi global madaniyatga qarshi submahalliy madaniyat turlari hamda davlat siyosati parametrlarida qadriyatli an'analarning namoyon bo'lishi bilan aks etadi.(1-jadval)

¹⁷ Jonas Tallberg, Carl Vikberg, Democracy, Autocracy, and the Design of International Organizations, *International Studies Quarterly*, Volume 69, Issue 2, June 2025, sqaf034, <https://doi.org/10.1093/isq/sqaf034>

¹⁸ Баранов А. В. Специфика политической модернизации России в 1990-2000-е годы (теории и реальность) // Вестник ВолГУ. Серия 4, История. Регионоведение. Международные отношения. 2011. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/spetsifika-politicheskoy-modernizatsii-rossii-v-1990-2000-e-gody-teorii-i-realnost> (дата обращения: 11.11.2025).

¹⁹ Digital governance. <https://www.undp.org/governance/digital-governance>

²⁰ Economic Miracles in the 1950s. https://www.imf.org/external/np/exr/center/mm/eng/mm_dr_05.htm

²¹ The World Economy in the 1990s: A long run perspective. <https://www.lse.ac.uk/Economic-History/Assets/Documents/WorkingPapers/Economic-History/2004/WP8704.pdf>

²² OECD (2010), *Economic Policy Reforms 2010: Going for Growth*, OECD Publishing, Paris, <https://doi.org/10.1787/growth-2010-en>.

²³ Regionalism. Origins, structure and features. <https://ecpr.eu/Events/Event/PanelDetails/273>

²⁴ Bagchi, Amiya Kumar, 'The 1990s: The Fall of the Berlin Wall, Globalization, and Crises', in José Antonio Ocampo, Anis Chowdhury, and Diana Alarcón (eds), *The World Economy through the Lens of the United Nations*, Initiative for Policy Dialogue (Oxford, 2018; online edn, Oxford Academic, 19 Apr. 2018), <https://doi.org/10.1093/oso/9780198817345.003.0006>, accessed 11 Nov. 2025.

²⁵ Political subculture. <https://study.com/academy/lesson/political-subcultures-definition-examples.html>



Siyosiy texnologiya nomi	Ta'rifi
Siyosiy kommunikatsiya texnologiyasi	Siyosiy kommunikatsiya siyosatchilar, ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik o'rtasida ma'lumot uzatish bilan bog'liq jarayondir. Jarayon boshqaruv institutlaridan fuqarolarga qarab, gorizantal ravishda siyosiy ishtirokchilar o'rtasidagi aloqada, shuningdek, jamoatchilik fikridan hokimiyatga qarab yo'naltiriladi ²⁶ .
Axborot texnologiyasi (IT)	Axborot texnologiyalari ma'lumotlarni saqlash, olish, uzatish va manipulyatsiya qilish uchun kompyuterlar, dasturiy ta'minot, tarmoqlar va boshqa elektron qurilmalardan foydalanishni o'z ichiga oladi ²⁷ .
"Jamoatchilik bilan aloqalar (PR)" texnologiyasi	Manfaatdor tomonlarni muayyan siyosiy subyekt haqida turli shaklda xabardor qilish texnologiyasidir ²⁸ .
Siyosiy konfliktlarni boshqarish va nazorat qilish texnologiyasi	Qarama-qarshi tomonlarning manfaatlari, qarashlari to'qnashuvi. U siyosiy xarakterga ega bo'la boshlaganda, boshqalar uchun salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Konfliktni hal etish uchun urinishning yo'qligi uning rivojlanishiga, ya'ni, nizo tomonlari o'rtasidagi munosabatlardagi inqirozning boshlanishiga olib keladi. Inqirozlar o'sishi bilan xavflidir ²⁹ . Mazkur texnologiya bu jarayonni nazorati va boshqaruvi uchun ishlab chiqiladi.

2-jadval. Davlat boshqaruvi texnologiyalarida muhim ahamiyatga ega bo'lgan siyosiy texnologiyalar mohiyati.

Davlat boshqaruvi modernizatsiyasi XXI asrda raqamli ko'rinishda davom etmoqda. Davlat siyosatidagi rivojlanish ushbu jarayon ishonchligi hamda jamiyat tomonidan tan olinishi uchun raqamlashgan ko'rinishga o'tmoqda. Xususan, zamonaviy davlat boshqaruvi texnologiyalarining harakat mexanizmlarida siyosiy kommunikatsiya texnologiyasi, axborot texnologiyasi, siyosiy konfliktlarni boshqarish va nazorat qilish texnologiyasi hamda PR texnologiyalarining ahamiyati ortmoqda. Raqamli demokratiyaning shakllanishi, zamonaviy modernizatsion jarayonlar fondida elektron boshqaruv va elektron hukumat tizimlarini tizimli isloh qilishga undamoqda. Davlat

²⁶ Pippa Norris. Political Communication // International Encyclopedia of the Social & Behavioral Sciences (Second Edition). 2015, P.342-349. <https://doi.org/10.1016/B978-0-08-097086-8.95025-6>

²⁷ What is Information Technology? An In-Depth Guide. <https://www.uc.edu/news/articles/uco/what-is-information-technology.html>

²⁸ What is Tech PR. <https://luminouspr.com/what-is-tech-pr/>

²⁹ Umalatrova S.U., Rajabova S.R. POLITICAL CONFLICTS CONTROL AND MANAGEMENT TECHNOLOGY // Экономика и социум. 2019. №5 (60). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/political-conflicts-control-and-management-technology> (дата обращения: 16.11.2025).



boshqaruvi texnologiyalarining shakllanishi ham shu tarzda amalga oshirilmoqda. (2-jadval)

NATIJALAR.

Zamonaviy davlat boshqaruvida davlat siyosati va boshqaruv texnologiyalarining modernizatsiyasi bo'yicha bir qator davlatlar o'zining rivojlanish darajalarining progressiyalarini namoyon qilmoqda.

Singapur davlatining modernizatsion o'sishi va davlat siyosati hamda davlat boshqaruvidagi samarador texnologiyalarni qo'llash, davlat xizmatlari va davlat va jamiyat milliy manfaatlarining siyosiy rivojlanishida Li Kvan Yuning xizmatlari katta hisoblanadi³⁰. Singapur davlatining modernizatsiyasida demokratik jarayonlar, iqtisodiy o'sish: urbanizatsiya va ta'lim sohasida texnologik davlat siyosati qoidalari o'zining 1963-yildagi holatidan, 1990-yillargacha bo'lgan holatiga ko'ra, 60-70% lik ko'rsatkichga farq qiladi. Boston universiteti tadqiqotchisi Jakob Steinning "Singapur modernizatsiyasi nazariyasining qarama-qarshiligi" nomli maqolasida Singapur Lipset nazariyasi orqali demokratik jarayonni amalga oshirishi va iqtisodiy o'sish suratlarining ko'tarilishini ta'kidlaydi. Biroq, amerikalik olim Pranu Gautamning fikricha, Singapurdagi demokratiya va iqtisodiy o'sish bir-biriga bog'liq bo'lmagan jarayon hisoblanadi. Mazkur jarayon faqat Yevropa davlatlariga xos hisoblanadi³¹. Singapur Milliy universiteti Ijtimoiy tadqiqotlar markazining ma'lumotlariga ko'ra, Singapur modernizatsiyasida sotsial tuzilma: jamiyat, guruh, sinf va xalqning xatti-harakatlari va xulq-atvoridagi muayyan ijtimoiylashuv hamda tashqi modernizatsiya javoblariga moslashuvchanlik davlat siyosatidagi muhim dinamik jarayonlarni ko'rsatdi³². Jahon bankining rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, Singapur davlati 2020-yilda Inson kapitali indeksida yuqori natijaga erishgani qayd etiladi, bu ko'rsatkich davlat YIM 1965-yildan so'ng 10 yil o'tib 7% ni tashkil qilgan bo'lsa, 25-yil o'tib 9.2% dan oshgani qayd etilmoqda. Davlat boshqaruvida iqtisodiy siyosat va davlat siyosatida davlat xizmatlarining o'shishi Osiyo mintaqasida Gongkong(Korea Respublikasi) va Tayvan(Xitoy) qatoriga qo'shilishiga olib keldi³³.

Rossiya Federatsiyasi XX asrning oxirlarida agrar modernizatsiyasining trayektoriyalari muvaffaqiyati hamda industriallizatsiya jarayoni bilan intensiv dinamikasi mazkur holat fondida davlat siyosatidagi muhim o'zgarishlarga sabab bo'ldi³⁴. Rossiya Federatsiyasi davlat boshqaruvi va davlat siyosatida modernizatsion jarayonlar bir qancha yo'nalishlardagi o'zgarishlarga bog'liqdir. Birinchidan, davlat boshqaruvida federal va munistipal boshqaruvdagi optimizatsiya jarayonlari, ikkinchidan, boshqaruv

³⁰Singapore's Path To Modernization: An Analysis Of Lee Kuan Yew's Policies. (2025). *International Journal of Artificial Intelligence*, 5(10), 1309-1311. <https://www.academicpublishers.org/journals/index.php/ijai/article/view/7095>

³¹ Wucherpfennig, Julian, and Franziska Deutsch. 2009. "Modernization and Democracy: Theories and Evidence Revisited." Center for Comparative and International Studies (CIS). https://cis.ethz.ch/content/dam/ethz/special-interest/gess/cis/cis-dam/CIS_DAM_2015/WorkingPapers/Living_Reviews_Democracy/Wucherpfennig%20Deutsch.pdf

³² Modernization in Singapore: Changing values and the Individual. <https://fass.nus.edu.sg/socanth/wp-content/uploads/sites/16/2024/04/wp10.pdf>

³³World Bank Group: Singapore. <https://www.worldbank.org/en/country/singapore/overview>

³⁴ Kornilov, G. Russian Modernization in the 20th Century: Features, Pace, and Results. *Her. Russ. Acad. Sci.* 92 (Suppl 3), S221–S234 (2022). <https://doi.org/10.1134/S1019331622090088>



faoliyatini standartlashtirish, uchinchidan, ijro hokimiyati va jamiyat o'rtasidagi ishonchning mustahkamlanishi, to'rtinchidan, "elektron hukumat"ni shakllantirish jarayonlari, beshinchidan davlat xizmatini takomillashtirish, oltinchidan, axborot ta'minoti va uni boshqaruvidagi o'zgarishlar, yettinchidan, samarador natijalarga asoslangan boshqaruv va byudjetlashtirish kabi jarayonlar³⁵ asosiy rivojlanish ko'rsatkichini belgiladi. Rossiya Federatsiyasi davlat boshqaruvi modernizatsiyasida ijtimoiy, moliyaviy, parlament va sud-huquq nazoratini tizimli yo'lga qo'yish, davlat xizmatchilari rotatsiyasi, davlat boshqaruvida ixtisoslashgan nazorat va monitoringni amalga oshirish³⁶ mazkur davlat siyosatidagi transformatsion rivojlanish va bir qator salbiy jarayonlarni oldini olishda muhim xizmat qildi.

Xitoy Xalq respublikasining modernizatsiyasi va davlat siyosatidagi barqarorligida 14 ta besh yillik rejaning ahamiyati katta hisoblanadi. Ispaniyalik olim, Catedra Xitoy fondi prezidenti Marselo Munozning 40 yillik ilmiy izlanish natijalariga ko'ra, ushbu davlat rivojlanishida an'anaviylik va modernizatsiya konvergentsiyasi jarayoni hamda 14-besh yillik rejadagi (2021-2025) asosiy uch tamoyil: modernizatsiyani mustahkamlash, texnologik o'zini o'zi ta'minlashni kuchaytirish, yuqori sifatli rivojlanishga ko'maklashish bu jarayon dinamikasini rivojlantirib yubordi. Bu davlatda Konfutsiyning: "Odamlarning farovonligi yaxshi boshqaruvning o'lchovidir." tamoyili davlat siyosatida muhim qadriyat ramzi va shiori hisoblanadi³⁷. 15-besh yillik reja (2026-2030) davridagi progressiv dinamika fondida ham mazkur holat optimizatsiyasi davom etmoqda. Xitoy Xalq respublikasining Sinxua axborot agentligi ma'lumotlariga ko'ra, davlat siyosatida ijtimoiy sohada 800 million kishini kambag'allik holatidan chiqarishga erishib BMTning 2030-yilgacha bo'lgan "Barqaror rivojlanish dasturi"ning "Kambag'allikka barham berish" yo'nalishida muddatidan oldin yuqori natijaga erishdi. Bundan tashqari Xitoy Xalq respublikasi qo'shni davlatlar bilan "Bir kamar, bir yo'l" konsepsiyasini qo'llash orqali Xitoy modernizatsiyasi mo'jizasini namoyish qilishni rejalashtirmoqda³⁸.

Germaniya davlat boshqaruvi modernizatsiyasida muhim ahamiyatga ega bo'lgan davlat siyosati vektorlari muhim fundamental bosqichni shakllantirdi. Ushbu yo'nalishlar: birinchidan, byurokratiyani sezilarli darajada qisqartirish, ikkinchidan, qonun ijodkorligini yaxshilash, uchinchidan, fuqarolar va kompaniyaga yo'naltirilgan xizmat ko'rsatish, to'rtinchidan, kelajakka yo'naltirilgan kadrlarni rivojlantirish va strategik xodimlarni boshqarish, beshinchidan, milliy darajada yanada samarali boshqaruv kabi

³⁵ Потехин Виктор Анатольевич Модернизация государственного управления: основные направления и инновации // Вестник РУДН. Серия: Социология. 2011. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/modernizatsiya-gosudarstvennogo-upravleniya-osnovnye-napravleniya-i-innovatsii> (дата обращения: 15.11.2025).

³⁶ Трансформация государственного управления в Российской Федерации тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 23.00.02, кандидат политических наук Ким Джин Ман. 1999. С.173. <https://www.dissercat.com/content/transformatsiya-gosudarstvennogo-upravleniya-v-rossiiskoi-federatsii>

³⁷ Five-Year Plans: A Roadmap to Chinese Modernization. https://www.stdaily.com/web/English/2025-11/10/content_429283.html

³⁸ Chinese modernization transforms China, benefit world. <https://eng.yidaiyilu.gov.cn/p/OCA7MN25.html>



jarayonlar hisoblanadi³⁹. Germaniya davlat boshqaruvi va davlat siyosatidagi asosiy modernizatsiya darajalarining barqarorligida “e-Government” ya’ni, elektron hukumatning IT boshqaruvi va federal, shtat hamda mahalliy tuzilmalar miqyosidagi mustahkam aloqalar va axborotlar almashinuvi davlat iqtisodiyoti va boshqaruv sektoridagi rivojlanishni ta’minlamoqda⁴⁰. Bu esa, davlat boshqaruvidagi istiqbolli modernizatsiya jarayonini ta’minlaydi.

MUHOKAMALAR.

Davlat boshqaruvining tizimli va dinamik harakat trayektoriyalari davlat siyosati va boshqaruvi texnologiyalarida barqaror va beqaror holatda bo’lishi mumkin. Bu jarayonning modernizatsiyasi hamda transformatsion ko’lami davlat boshqaruvidagi siyosat subyekti bo’lgan siyosiy institutlar, siyosiy partiyalar, siyosiy elita, siyosiy yetakchilarning qaror qabul qilishdagi tutgan pozitsiyasi hamda ta’siri bilan o’lchanadi. Biroq, siyosat falsafasi va nazariyasidagi fundamental nazariyalarning mazkur amaliy jarayonga mosligini ham inobatga olib tahlil qilinsa, birgina bu elementlar bilan mazkur jarayondagi yo’nalishlar va strategiyalardagi o’zgarishlar miqdorini ifodalab bo’lmaydi. Jamiyat va davlat munosabatlaridagi amaliy modernizatsiyaning rovida esa, siyosiy madaniyat, siyosiy rejim, siyosiy qadriyat hamda siyosiy xulq-atvor omillari ham tashkiliy komponentning muhim harakatini ta’minlovchi elementlardir.

Davlat siyosati va boshqaruvi texnologiyalarining modernizatsion ko’rinishi va rivojlanishida bir qator qarama-qarshilik holatlari ham mavjud hisoblanadi. Bunday holatlardan biri sifatida ratsional byurokratiya va uning davlat boshqaruvi samaradorligidagi roli hisoblanadi. Ushbu konsepsiya nemis olimi Maks Veber tomonidan XX asrda ishlab chiqilgan va o’z natijalarini ifodalagan bo’lsada, biroq Robert Mertonning ushbu konsepsiyaga olib kirgan disfunktsiyalari ya’ni, haddan tashqari muvofiqlik, o’zgarishlarga qarshilik, shaxssiz muomala, ruhsatnoma kabi funktsiyalar bu jarayonga qarshi hisoblanadi. Yana bir olim Fillip Selznikning tashkilotdagi inson elementini hisobga olmaslik hamda bu yerda tashqi omillarni yetarlicha baholamaslik kabi holatlarni tizimli ifodalaydi. Davlat boshqaruvi modernizatsiyasida ko’pgina davlatlar duch keladigan muammo ham shu hisoblanadi⁴¹. Ya’ni, boshqaruvda institut hamda tuzilmalarning roli va pozitsiyasiga yuqori baho berish, inson omili va uning xulq-atvorini inobatga olmaslik hisoblanadi.

Elektron hukumat va elektron raqamli boshqaruvning davlat siyosati va boshqaruv texnologiyalarida qo’llanishi, an’anaviy boshqaruv ta’sirini kamaytirmoqda. Davlat xizmatida fuqarolarga yagona platformadan xizmat ko’rsatish shakllandi. Davlatning iqtisodiy xarajatlari va davlat daromadlari o’rtasidagi farqlar ham keskin oshdi. Xodimlar va davlat organlari o’rtasidagi raqamli aloqa trayektoriyalari yaratildi. Jamiyatning barcha qatlamlari bu jarayon modernizatsiyada u yoki bu manfaat yuzasidan ishtirok

³⁹ The German government’s modernization agenda: driving digitalization and cutting red tape. <https://www.noerr.com/en/insights/the-german-governments-modernisation-agenda-driving-digitalisation-and-cutting-red-tape>

⁴⁰ The public service and administrative reform. <https://www.bmi.bund.de/EN/topics/administrative-reform/administrative-reform-node.html>

⁴¹ Criticisms of Weber’s Bureaucracy: Efficiency, Rationality and relevance. <https://pubadmin.institute/administrative-theory/criticisms-of-webers-bureaucracy>



etadi. Markaziy Michigan universiteti tadqiqotchilari Zhenyu Huang va Peterson O. Buamaning elektron hukumat haqida olib borgan ilmiy tadqiqot ishlarida ham elektron hukumat tizimidagi pog'onaviy rivojlanish va uning bir qator turlari G2C, G2B, G2E, G2G orqali davlat siyosatidagi samaradorlik imkoniyati oshmoqda⁴².

Davlat boshqaruvining progressiv dinamikasida raqamli boshqaruv, byurokratiyani optimallashtirish yoki qayta tashkil etish hamda uning shaklini o'zgartirish, inqirozlar, nizolarni strategik rejalashtirish va ularni hal etish uchun muhim imkoniyatlarga ega bo'lishda mazkur sohaning nazariy va amaliy qismlari o'rtasida muayyan qarama-qarshiliklar mavjud. Bu tanqidiy ko'rinish davlat boshqaruvidagi siyosiy jarayonlardagi nazariy va empirik yo'nalishlarning maqsadli va barqaror emasligini anglatadi. Buni hal etish zamonaviy tadqiqotlarda tizimli ravishda muhokama sifatida davom etarmoqda⁴³.

Biroq, mazkur davlat siyosati va boshqaruv texnologiyalarining modernizatsiyasi jarayonlarida siyosiy rejim, siyosiy madaniyat, siyosiy kommunikatsiya, siyosiy strategiyalarning ahamiyati katta hisoblanadi. Bu jarayon kontekstini rivojlantirish har bir davlatning ilmiy-tadqiqot muassasalarida ilmiy ish sifatida olib borilmoqda

XULOSA.

Davlat boshqaruvining progressiv trayektoriyalarida davlat siyosati va boshqaruv texnologiyalari modernizatsiyasi qiyosiy tahlili xulosasi quyidagicha bo'ldi:

Birinchi, ko'pgina rivojlangan davlatlar boshqaruvida davlat siyosati va boshqaruv texnologiyalarida an'anaviylik va qadriyatli boshqaruvi bilan zamonaviy boshqaruv texnologiyalari va davlat siyosati mexanizmlari o'rtasida konvergentsial aloqalar mustahkamlangan. Bu o'z navbatida quyidagilarni ta'minlaydi:

- a) Davlat va jamiyat o'rtasidagi mustahkam aloqa va munosabatlar tizimi;
- b) Davlat boshqaruvidagi korrupsiya, nepotizm hamda vertikal nomenklatura ustuvorligiga chek qo'yish;
- c) Siyosiy elitaning qaror qabul qilishdagi statusi va jamiyat statusi o'rtasidagi kelishuv.

Ikkinchi, siyosiy tizim barqarorligini ta'minlashda davlat siyosati va boshqaruv texnologiyalarining rivojlanganligi muhim element hisoblanib, rivojlanayotgan davlatlarning ham boshqaruv sohasidagi tajribalar almashinuvini tezlashtiradi.

Uchinchi, davlat siyosati va davlat boshqaruvi texnologiyalari modernizatsiyasining istiqbolli strategiyasini ishlab chiqish va davlat boshqaruvining progressiv dinamikasidagi ko'rsatkichlarini namoyish qilish davlatning qo'shni davlatlar va rivojlangan davlat o'rtasidagi mustahkam hamkorligini ta'minlaydi.

To'rtinchi, ichki va tashqi siyosiy jarayonlarning barqarorlik holatini belgilaydi.

Beshinchi, davlat boshqaruvida tizimli va maqsadli rivojlanish ko'rsatkichlari va istiqbollari shakllantiradi.

⁴² Z.Huang. P.O. Bwoma. An overview of critical issues of e-government. // Issue in Information systems. 2003. P.164-170. https://www.researchgate.net/publication/242098582_An_overview_of_critical_issues_of_e-government

⁴³ Guochong Xu, Limei Huang & Longxia Huo. Conflict Research in Public Administration: A Systematic Literature Review. Public Performance & Management Review 0:0, pages 1-25. <https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/15309576.2025.2549297?src=>



Davlat siyosati va davlat boshqaruvi texnologiyalarining modernizatsion jarayonlarini davlat boshqaruvining progressiv dinamikasi harakati sifatida tavsiflash mazkur jarayonning natijasini ifodalaydi.

References:

- 1) Алмонд Г., Пауелл Дж., Стром К., Далтон Р. Государственная политика // Алмонд Г., Пауелл Дж., Стром К., Далтон Р. Сравнительная политология сегодня. М., 2002. С. 187-238. <https://pavroz.ru/almond-public-policy>
- 2) Амелина Т. С. СОВРЕМЕННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В СИСТЕМЕ ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ // Экономика и социум. 2023. №7 (110). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sovremennye-tehnologii-v-sisteme-gosudarstvennogo-upravleniya> (дата обращения: 16.11.2025).
- 3) Атабиева З. А. Понятие и содержание политической модернизации // Дискуссия. 2010. №7. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ponyatie-i-soderzhanie-politicheskoy-modernizatsii> (дата обращения: 10.11.2025).
- 4) Государственная политика. <https://pavroz.ru/policy>
- 5) Родачин Владимир Михайлович ФЕНОМЕН ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОЛИТИКИ: СУЩНОСТЬ И ВИДЫ // Гуманитарные науки. Вестник Финансового университета. 2021. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/fenomen-gosudarstvennoy-politiki-suschnost-i-vidy> (дата обращения: 07.11.2025).
- 6) Владимир Иванович Якунин, Сергей Владимирович Володенков, Вардан Эрнестович Багдасарян, Максим Владимирович Вилицов ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА КАК ОБЪЕКТ СОВРЕМЕННЫХ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ // Вестник Московского университета. Серия 12. Политические науки. 2024. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/gosudarstvennaya-politika-kak-obekt-sovremennyh-nauchnyh-issledovaniy> (дата обращения: 07.11.2025).
- 7) Мандрыка Е. В. Технологии государственного управления в России // Вестник института экономических исследований. – 2017. – №. 1 (5). – С. 138-145.
- 8) Борисова Екатерина Константиновна Понятие государственного управления // International scientific review. 2020. №LXVI. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ponyatie-gosudarstvennogo-upravleniya> (дата обращения: 16.11.2025).
- 9) Байнова М. С. Понятие государства и системы государственного управления // Материалы Афанасьевских чтений. 2016. №1 (14). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ponyatie-gosudarstva-i-sistemy-gosudarstvennogo-upravleniya> (дата обращения: 16.11.2025).
- 10) Миронов А. Л. Государственное управление: основные цели и функции // Вестник Московского университета МВД России. 2012. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/gosudarstvennoe-upravlenie-osnovnye-tseli-i-funksii> (дата обращения: 16.11.2025).
- 11) Логунов А. Б. Административная реформа в Российской Федерации: основные этапы реализации // Аналитический вестник. Серия: Проблемы государственного строительства. 2006. № 22.



12) Дорошенко Надежда Николаевна, Капица Сергей Иванович, Покровская Надежда Николаевна Модернизация социальной политики государства и реформирование социально-управленческих технологий // Социология и право. 2013. №4 (21). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/modernizatsiya-sotsialnoy-politiki-gosudarstva-i-reformirovanie-sotsialno-upravlencheskih-tehnologiy> (дата обращения: 09.11.2025).

13) Civil Rights movement in the 1950s. <https://www.ebsco.com/research-starters/history/civil-rights-movement-1950s>

14) The 1970's as the Policy Watershed. <https://socialwelfare.library.vcu.edu/programs/health-nutrition/the-1970s-as-policy-watershed/>

15) The social policies of the 1990s and 200s. <https://www.cambridge.org/core/books/abs/chile-and-the-neoliberal-trap/social-policies-of-the-1990s-and-2000s/>

16) World social report 2020. <https://www.un.org/en/desa/world-social-report-2020>

17) Jonas Tallberg, Carl Vikberg, Democracy, Autocracy, and the Design of International Organizations, International Studies Quarterly, Volume 69, Issue 2, June 2025, sqaf034, <https://doi.org/10.1093/isq/sqaf034>

18) Баранов А. В. Специфика политической модернизации России в 1990-2000-е годы (теории и реальность) // Вестник ВолГУ. Серия 4, История. Регионоведение. Международные отношения. 2011. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/spetsifika-politicheskoy-modernizatsii-rossii-v-1990-2000-e-gody-teorii-i-realnost> (дата обращения: 11.11.2025).

19) Digital governance. <https://www.undp.org/governance/digital-governance>

20) Economic Miracles in the 1950s. https://www.imf.org/external/np/exr/center/mm/eng/mm_dr_05.htm

21) The World Economy in the 1990s: A long run perspective. <https://www.lse.ac.uk/Economic-History/Assets/Documents/WorkingPapers/Economic-History/2004/WP8704.pdf>

22) OECD (2010), Economic Policy Reforms 2010: Going for Growth, OECD Publishing, Paris, <https://doi.org/10.1787/growth-2010-en>.

23) Regionalism. Origins, structure and features. <https://ecpr.eu/Events/Event/PanelDetails/273>

24) Bagchi, Amiya Kumar, 'The 1990s: The Fall of the Berlin Wall, Globalization, and Crises', in José Antonio Ocampo, Anis Chowdhury, and Diana Alarcón (eds), The World Economy through the Lens of the United Nations, Initiative for Policy Dialogue (Oxford, 2018; online edn, Oxford Academic, 19 Apr. 2018), <https://doi.org/10.1093/oso/9780198817345.003.0006>, accessed 11 Nov. 2025.

25) Political subculture. <https://study.com/academy/lesson/political-subcultures-definition-examples.html>

26) Pippa Norris. Political Communication // International Encyclopedia of the Social & Behavioral Sciences (Second Edition). 2015, P.342-349. <https://doi.org/10.1016/B978-0-08-097086-8.95025-6>



- 27) What is Information Technology? An In-Depth Guide.
<https://www.uc.edu/news/articles/uco/what-is-information-technology.html>
- 28) What is Tech PR. <https://luminouspr.com/what-is-tech-pr/>
- 29) Umalatoeva S.U., Rajabova S.R. POLITICAL CONFLICTS CONTROL AND MANAGEMENT TECHNOLOGY // Экономика и социум. 2019. №5 (60). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/political-conflicts-control-and-management-technology> (дата обращения: 16.11.2025).
- 30) Singapore's Path To Modernization: An Analysis Of Lee Kuan Yew's Policies. (2025). International Journal of Artificial Intelligence, 5(10), 1309-1311.
<https://www.academicpublishers.org/journals/index.php/ijai/article/view/7095>
- 31) Wucherpennig, Julian, and Franziska Deutsch. 2009. "Modernization and Democracy: Theories and Evidence Revisited." Center for Comparative and International Studies (CIS). https://cis.ethz.ch/content/dam/ethz/special-interest/gess/cis/cis-dam/CIS_DAM_2015/WorkingPapers/Living_Reviews_Democracy/Wucherpennig%20Deutsch.pdf
- 32) Modernization in Singapore: Changing values and the Individual.
<https://fass.nus.edu.sg/socanth/wp-content/uploads/sites/16/2024/04/wp10.pdf>
- 33) World Bank Group: Singapore.
<https://www.worldbank.org/en/country/singapore/overview>
- 34) Kornilov, G. Russian Modernization in the 20th Century: Features, Pace, and Results. Her. Russ. Acad. Sci. 92 (Suppl 3), S221-S234 (2022).
<https://doi.org/10.1134/S1019331622090088>
- 35) Потехин Виктор Анатольевич Модернизация государственного управления: основные направления и инновации // Вестник РУДН. Серия: Социология. 2011. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/modernizatsiya-gosudarstvennogo-upravleniya-osnovnye-napravleniya-i-innovatsii> (дата обращения: 15.11.2025).
- 36) Трансформация государственного управления в Российской Федерации тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 23.00.02, кандидат политических наук Ким Джин Ман. 1999. С.173. <https://www.dissercat.com/content/transformatsiya-gosudarstvennogo-upravleniya-v-rossiiskoi-federatsii>
- 37) Five-Year Plans: A Roadmap to Chinese Modernization.
https://www.stdaily.com/web/English/2025-11/10/content_429283.html
- 38) Chinese modernization transforms China, benefit world.
<https://eng.yidaiyilu.gov.cn/p/OCA7MN25.html>
- 39) The German government's modernization agenda: driving digitalization and cutting red tape. <https://www.noerr.com/en/insights/the-german-governments-modernisation-agenda-driving-digitalisation-and-cutting-red-tape>
- 40) The public service and administrative reform.
<https://www.bmi.bund.de/EN/topics/administrative-reform/administrative-reform-node.html>
- 41) Criticisms of Weber's Bureaucracy: Efficiency, Rationality and relevance.
<https://pubadmin.institute/administrative-theory/criticisms-of-webers-bureaucracy>



42) Z.Huang, P.O. Bwoma. An overview of critical issues of e-government. // Issue in Information systems. 2003. P.164-170.

<https://www.researchgate.net/publication/242098582> An overview of critical issues of e-government

43) Guochong Xu, Limei Huang & Longxia Huo. Conflict Research in Public Administration: A Systematic Literature Review. Public Performance & Management Review 0:0, pages 1-25.

<https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/15309576.2025.2549297?src=>